TILSHUNOSLIK

Saydjanova Komila Davronovna (Alfraganus universiteti "Farmatsevtika va kimyo" kafedrasi; k.saydjanova@afu.uzORCID; https://orcid.org/0000-0003-0142-2136;)

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA DISKURS VA DISKURSIV TALQINDA ANTONIMLAR MASALASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning antroposentrik paradigmasi sharoitida diskurs tushunchasining ilmiy muomalaga kirishi va kengayib borishi, shuningdek, antonimik birliklarning diskursiv talqini bilan bog'liq nazariy qarashlar tizimli ravishda ko'rib chiqiladi, bunda antonimiya faqat "qarama-qarshi ma'no" juftligi sifatida emas, balki nutqiy vaziyatda adresantning illokutiv niyati, adresatning kognitiv kutishi hamda madaniy presuppozitsiyalari bilan qo'shma holda ishlaydigan pragmatik-mantiqiy mexanizm sifatida izohlanadi.*

Kalit so'zlar: *diskurs, diskursiv talqin, leksik kontrast, antonimiya, pragmatika, kohezionlik, argumentatsiya, korpus lingvistikasi, dialogik muloqot.*

Сайджанова Комила Давроновна (Университет Алфраганус, кафедра "Фармацевтики и химии"; E-mail: k.saydjanova@afu.uz; ORCID: https://orcid.org/0000-0003-0142-2136)

ПРОБЛЕМА АНТОНИМИИ В ДИСКУРСЕ И ДИСКУРСИВНОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация. *В статье системно рассматриваются становление и расширение понятия дискурса в условиях антропоцентрической парадигмы современного языкознания, а также теоретические подходы к дискурсивной интерпретации антонимических единиц; при этом антонимия трактуется не только как пара «противоположных значений», но и как прагматико-логический механизм, функционирующий в речевой ситуации во взаимосвязи с иллокутивным намерением адресанта, когнитивными ожиданиями адресата и культурными пресуппозициями.*

Ключевые слова: *дискурс, дискурсивная интерпретация, лексический контраст, антонимия, прагматика, когезия, аргументация, корпусная лингвистика, диалогическое общение.*

Saydjanova Komila Davronovna (Alfraganus University Department of Pharmacy and Chemistry; E-mail: k.saydjanova@afu.uz; ORCID: https://orcid.org/0000-0003-0142-2136)

ANTONYMY IN DISCOURSE AND DISCURSIVE INTERPRETATION IN CONTEMPORARY LINGUISTICS

Annotation. *This article provides a systematic overview of how the notion of discourse has entered and expanded within the anthropocentric paradigm of contemporary linguistics, and it surveys major theoretical approaches to the discursive interpretation of antonymic units. Antonymy is treated not merely as a pair of "opposite meanings" but as a pragmatic-logical mechanism operating in a speech situation in conjunction with the speaker's illocutionary intention, the addressee's cognitive expectations, and culturally grounded presuppositions.*

Keywords: *discourse, discursive interpretation, lexical contrast, antonymy, pragmatics, cohesion, argumentation, corpus linguistics, dialogic interaction.*

Kirish. Antonim atamasi yunoncha anti ("qarshi, zid") va onyma/onoma ("nom") komponentlaridan tarkib topgan bo'lib, lug'aviy jihatdan "qarama-qarshi nom", "zid nom" ma'nolarini ifodalaydi. Shunga ko'ra, antonimlar til tizimida bir xil semantik maydon (yoki bitta "o'q") doirasida turib, ma'no jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan, ko'pincha, esa bir-birini mantiqan cheklaydigan yoki inkor etadigan birliklar sifatida tushuniladi, demak, antonimiya faqat so'zlar ro'yxatidagi "teskari juftlik" emas, balki leksik-semantik tizimning muhim struktur munosabatlaridan biridir.

Tilshunoslik tajribasi shuni ko'rsatadiki, antonimlar orqali til birliklarining ma'nosi yanada aniqroq "ko'rinadigan" bo'ladi, masalan, kattaning mazmuni kichik bilan qarama-qarshi qo'yilganda, issiqning qiymati sovuq bilan munosabatda, ochiqning ma'nosi esa yopiq bilan oppozitsiyada yanada ravshanlashadi. Bunda muhim jihat shundaki, antonimlar har doim ham "mutlaq inkor"ni anglatavermaydi: ayrim Antonimik juftliklar komplementar (masalan, tirik–o'lik), ya'ni, birini tan olish ikkinchisini inkor etishni taqozo qiladigan turga kirsa, boshqa bir qismi gradatsion (masalan, issiq–sovuq), ya'ni, oralig'ida "o'rtacha", "iliq", "salqin" kabi oraliq holatlar mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan turga mansubdir. Shunday ekan, antonimiyani tushuntirishda "qarama-qarshilik"ning tabiati – qat'iy yoki darajalanadigan, albatta, hisobga olinishi lozim.

Dunyoni idrok etishda "juftlik" (qarama-qarshi qutblar) tamoyili, ko'pincha, tabiiy va qulay model sifatida namoyon bo'lishi ham e'tiborga molik. Inson tafakkuri, ko'pincha, hodisalarni bor–yo'q, yaxshi–yomon, yaqin–uzoq, tez–sekin kabi oppozitsiyalar orqali tartiblaydi, bu esa tilning leksik tizimida ham antonimik munosabatlarning keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Biroq shuni alohida ta'kidlash kerakki, har qanday "juftlik" avtomatik tarzda taraqqiyot yoki muvozanat manbai bo'lib qolmaydi; aksincha, rivojlanish va dinamik muvozanatni ta'minlaydigan juftliklar odatda shunday oppozitsiyalardirki, ular, bir tomondan, bir-birini cheklaydi (ya'ni, "qarama-qarshi" turadi), ikkinchi tomondan, bitta umumiy mezon, bitta domen atrofida jamlanib, bir-birini izohlash va belgilashga xizmat qiladi. Ya'ni, obrazli qilib aytganda, bunday juftliklar nafaqat inkor qiladi, balki ma'lum ma'noda "taqozo" ham etadi: bir qutbning mazmuni ikkinchi qutb bilan oppozitsiyada aniqlashadi, shuning uchun ham ular tilning semantik tizimini tartibga soluvchi muhim vosita sifatida ishlaydi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib aytilsa, antonimlar nafaqat lug'at boyligining "bezagi", balki tilning ma'no yaratish mexanizmlarida faol qatnashadigan, ma'no chegaralarini belgilaydigan hamda nutqda kontrast, baholash va ta'sirchanlikni kuchaytiradigan semantik resursdir.

Zamonaviy tilshunoslikda "til – inson – jamiyat" triadasi markaziy o'ringa chiqqani natijasida til birliklari endilikda faqat tizim doirasida emas, balki ularning real kommunikativ muhitda, ya'ni, diskursda qanday ma'no hosil qilishi, qanday strategik vazifalarni bajarishi va qaysi interpretatsion mexanizmlar orqali anglashilishi ham asosiy tadqiqot obyektiga aylangan, ayniqsa, qarama-qarshilik hamda kontrast kabi semantik operatsiyalar diskursning bog'lanishlilik va argumentativ qurilishida tayanch signal sifatida ishlashi ko'p bor ta'kidlangan [1;2137–2139-b.].

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, antonimik birliklar, bir tomondan, paradigmatik munosabatning klassik ko'rinishi (qarama-qarshi ma'no qatori) bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning real nutqda faollashuvi kontrast yaratish, baholash, pozitsiyalash, ironiyalash, "mantiqiy bosim" o'tkazish yoki murosa mexanizmini ishga tushirish kabi pragmatik vazifalar bilan bevosita bog'lanadi; demak, antonimiyani diskurs doirasida izchil talqin qilish leksik-semantik yondashuvni diskurs-analitik va pragmatik yondashuvlar bilan integratsiyalashni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Antonimlar masalasi, avvalo, klassik leksikologiya va leksik semantika doirasida tizimiy (paradigmatik) munosabat sifatida izohlanib, antonimlarning kelib chiqishi, so'z turkumlariga mansubligi, semantik qoplamlari hamda morfologik vositalar bilan hosil bo'lishi singari jihatlar markaziy o'rinni egallagan, o'zbek tilshunosligida bu yo'nalishning poydevor ishlari qatorida antonimlarning turlari va bir xil o'zak asosida antonim hosil bo'lishi masalasini maxsus muhokama qilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularda affiksatsiya orqali yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar tizimi dalillar bilan ko'rsatiladi [2;6-b.].

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida so'zlararo ma'noviy munosabatlarni kontekst va nutqiy vaziyat bilan bog'liq holda ko'rib chiqish tendensiyasi kuchayib, antonimik juftliklarning voqelik tasviri, baholash va adresatga ta'sir ko'rsatish mexanizmlarida tutgan o'rni alohida urg'u bilan qayd etilmoqda, xususan, antonymiya hodisasi "hodisalar konteksti"da interpretatsiya qilinganda, u nafaqat semantik qarama-qarshilik, balki muloqot ishtirokchilarining pozitsiyasini belgilovchi pragmatik marker sifatida namoyon bo'lishi ta'kidlanadi [3;153-b.]. Antonymlarning nutqdagi ekspressiv imkoniyatlari va uslubiy figuralar (antiteza, oksimoron, litota kabi) bilan bog'lanishi esa rus pragmalingvistik va stilistik an'anasida nisbatan faol yoritilib, antonimlarning nafaqat badiiy-estetik, balki normativ-kommunikativ xatolarni yuzaga keltirish ehtimoli bilan ham izohlanishi kuzatiladi. Mazkur yondashuv antonimik birliklarni "muvaffaqiyat" va "muvaffaqiyatsizlik" holatlarida qo'llash mezonlarini ko'rsatishi bilan muhimdir.

Diskursning matniy tashkiliy mexanizmlarini o'rganishda "antonimik korpus" tushunchasi taklif qilinib, matnning struktur-semantik birlikligi, voqealar dinamikasi va kognitiv fokusni ushlab turishda qarama-qarshiliklarning mantiqiy roli ko'rsatiladi, bunda antonimlar nafaqat leksik, balki grammatik va semantik jihatdan antonimiyaga ekvivalent bo'lgan konstruksiyalar darajasida ham tizimlashtiriladi [4;26-b.].

Jahon pragmalingvistik adabiyotida esa antonimiya, ko'pincha, "leksik kontrast"ning diskursiy realizatsiyasi sifatida ko'rilib, antonimik juftliklarning korpuslarda birga kelish qoliplari va ularning muloqotdagi funksional ixtisoslashuvi tasvirlanadi; xususan, ingliz va shved korpuslari qiyosida antonimlarning turli diskurs funksiyalari ajratilib, kontrast konstruksiyalari ma'no qurilishida "tayyor" resurs sifatida ishlashi ko'rsatiladi.

Korpus lingvistikasi va hisoblash tilshunosligi kesishmasida esa antonimiya va sinonimiya kabi leksik munosabatlar diskurs xususan, kontrast munosabatlarni aniqlashda qanday "signal" bo'lishi, qaysi hollarda esa umumiy bilim va kontekstual inferensiyalar bilan raqobatlashishi masalasi modellashtiriladi; interpre-

tatsiya qilinadigan modellarga tayanilgan tadqiqotlar leksik-semantik omillarning diskurs qo‘shgan ulushini miqdoriy va sifat jihatdan ko‘rsatishga urinadi [5;430-b.] . Diskursiy talqinda antonimiya muammosining yana bir muhim qatlami frazeologik birliklar bilan bog‘liq bo‘lib, qarama-qarshi ma’no ifodalovchi iboralar (antonim frazeologizmlar) nutqda obrazlilik va baholovchanlikni kuchaytirishi, dialogik vaziyatda esa ta’sirchanlik va emotsional fonni boshqarishi qayd etiladi [6;12-b.].

Bundan tashqari, qiyosiy tilshunoslik doirasida fransuz va o‘zbek materiali asosida olib borilgan tadqiqotlar matn, pragmatika va diskurs tadqiqotlarining kengayib borayotganini, shuningdek, leksik birliklarning kommunikativ-kognitiv xususiyatlarini qiyosiy mezonlar orqali tavsiflash mumkinligini ko‘rsatadi [7;7-b.].

Tahlillar va muhokama. Diskurs tushunchasi tilshunoslikda, avvalo, matn hamda vaziyat bilan izohlanadigan ko‘p qatlamli fenomen sifatida qaraladi: bunda matnning grammatik va leksik qurilishi (lingvistik sath) bilan bir qatorda kommunikativ ro‘l taqsimoti, muloqot kanali, janr talablari, ishtirokchilarning ijtimoiy maqomi, maqsad-motivlari, presuppozitsiyalar hamda implikaturalarga asoslangan inferensiya mexanizmlari bir butun tizimda ishlaydi; demak, diskursiv talqin “so‘z nimani anglatadi?” savolidan ko‘ra ko‘proq “so‘z aynan shu vaziyatda nima uchun shunday ishladi?” savoliga javob berishga intiladi.

Antonimlar aynan shu diskursiv o‘lchovda ko‘rilganda, u paradigmatik munosabat bo‘lish bilan birga, sintagmatik faollashuvning maxsus rejimiga ega bo‘lgan “semantik-operatsion resurs”ga aylanadi: ya’ni antonimlar muloqotda bir-birini inkor etuvchi juftlik bo‘lib qolmasdan, ko‘pincha, baholash shkalasini quradi, chegaralarni belgilaydi, oraliq pozitsiyalarni ko‘rsatadi yoki, aksincha, oraliq variantlarni “yo‘q” qilib, muhokamani ikki qutbga siqadi; shunday qilib, antonimik oppozitsiya diskursda har doim ham faqat semantik qarama-qarshilik emas, balki argumentativ strategiya hamdir.

Diskursiy talqinning muhim sharti shundaki, antonimik birliklar ko‘pincha kontekstda queiladi: masalan, leksik tizimda barqaror bo‘lgan oppozitsiya dialogik vaziyatda ironiyaviy intonatsiya, kinoya, litota yoki hiperbola bilan qo‘shilganda, odatiy baholash yo‘nalishini o‘zgartirishi mumkin; hisobga oladigan bo‘lsak, bunday holatlarda antonimlar nafaqat ma’no kontrastini, balki nutqiy pozitsiyaning yashirin komponentlarini ham “kodlaydi”, ya’ni adresatni muayyan interpretatsion yo‘lga boshlaydi.

Matn strukturasini tashkil etishda antonimik oppozitsiyalar, ko‘pincha, kohezion funksiyani bajaradi: bir xil mavzu doirasida “oldingi–keyingi”, “sabab–oqibat”, “maqsad–natija” kabi semantik aloqalar yuzaga kelganida, qarama-qarshilik mantiqiy bog‘lanishning kuchli ko‘rsatkichlariga aylanadi, demak, antonimiya “qarama-qarshi” bo‘lishi bilan birga, matnning semantik birlikliligini ta’minlaydigan konstruktor hamdir, chunki u segmentlar orasida kognitiv ko‘prik hosil qiladi va o‘quvchi/tinglovchining diqqatini muhim semantik chiziqqa jamlaydi.

Dialogik diskursda antonimlarning pragmatik funksiyalari, odatda, illokutiv maqsadga bog‘liq holda differensiyalanadi: so‘zlovchi kontrast yordamida o‘z pozitsiyasini keskinlashtirishi, bahsni kuchaytirishi, raqibning dalilini rad etishi yoki aksincha, murosaga chaqirib, “ikki qutb orasida” kelishuv variantini taklif etishi mumkin; xulosa qilinadiki, antonimik oppozitsiya dialogda faqat ma’no emas, balki ijtimoiy-psixologik ta’sir vositasidir.

Antonimlarga asoslangan stilistik mexanizmlar ham diskursiy talqinda alohida o‘rin tutadi: antiteza muallifning yoki so‘zlovchining baholovchi fikrini kuchaytirsa, oksimoron kutilmagan semantik to‘qnashuv orqali yangi interpretatsion “o‘qish”ni yuzaga keltiradi; litota esa inkor orqali ma’noni kuchaytirib, adresatning kognitiv resursini ishga soladi. Shuni ham qayd etish kerakki, bunday figuralar antonimlarni “chiziqli” oppozitsiya sifatida emas, balki ko‘p qatlamli pragmatik o‘yin sifatida namoyon qiladi.

Frazeologik sathda kuzatiladigan antonimik munosabatlar diskursning emotsional va aksiologik (baholovchi) rejasini boshqarishda, ayniqsa, samarali bo‘ladi. Barqaror iboralar tarkibidagi contrast, ko‘pincha, obrazli kategoriyalar orqali ifodalanadi, shu bois dialogik muloqotda oson anglashiladigan semantik signalga aylanadi, natijada so‘zlovchi qisqa birlik yordamida keng pragmatik qarashni ishga tushiradi, ya’ni, bir vaqtning o‘zida axborot beradi, munosabat bildiradi va ijtimoiy rolini ko‘rsatadi.

Diskursiy talqinning yana bir muhim jihati – antonimik birliklar orqali kognitiv ramka faollashishi: qarama-qarshilik, ko‘pincha, bir xil soha ichida yuzaga kelgani uchun, u addresatga mazkur sohaning chegaralarini va qiymat darajasini eslatadi, demak, antonimlar diskursda nafaqat mavjud ma’nolarni “qarama-qarshi” qo‘yadi, balki izohlash uchun zarur bo‘lgan bilimlar to‘plamini ham faollashtiradi.

Fransuz va o‘zbek tillari doirasida masalaga yondashilganda, umumiy tipologik o‘xshashliklar bilan birga diskursiy ishlatishdagi farqlar ham tabiiy ravishda yuzaga chiqadi: masalan, fransuz dialoglarida kontrastni grammatik vositalar bilan kuchaytirish tendensiyasi nisbatan faol bo‘lishi mumkin, o‘zbek dialoglarida esa frazeologik va paremial qatlamning baholovchanligi kuchli semantik-pragmatik resurs bo‘lib xiz-

mat qiladi, shu bois qiyosiy tahlil antonimlarni “shakl” emas, “funksiya” markazida turib o‘rganishni talab qiladi.

Shunday qilib, diskurs va diskursiv talqin doirasida antonimiya masalasi ko‘p sathli hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Tizimiy-semantik oppozitsiya, kontekstual qayta talqin, pragmatik strategiya, stilistik figura va kognitiv ramka kabi qatlamlar bir-birini to‘ldiradi, demak, bu yo‘nalishda samarali tadqiqot olib borish uchun klassik leksikologik mezonlar, diskurs tahlili, pragmalingvistika va korpus metodlarini integrativ modelga birlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Xulosa shuni ko‘rsatadiki, antonimiya zamonaviy tilshunoslikda faqat leksik-semantik oppozitsiya sifatida emas, balki diskursning kohezion va pragmatik qurilishida faol qatnashadigan funksional birlik sifatida ham talqin qilinmoqda; buning natijasida “antonimik munosabat” tushunchasi matn ichidagi kontrast konstruksiyalari, dialogik strategiyalar, stilistik figuralar hamda kognitiv ramkalar bilan bir tizimda ko‘riladigan holatga kelmoqda.

Demak, diskursiv talqinda antonimlar muammosi ikki yo‘nalishni birlashtiradi: birinchisi – til tizimidagi qarama-qarshiliklarning shakllanishi va tipologiyasi ya’ni leksik, so‘z yasalish, grammatik, frazeologik, ikkinchisi esa shu qarama-qarshiliklarning real nutqiy vaziyatda qanday pragmatik effekt berishi, ya’ni, baholash, argumentatsiya, ironiyalash, murosa yoki pozitsiyalash kabi strategiyalarni qanday qo‘llab-quvvatlashi; shu ikki qatlamni integratsiyalab tahlil qilish o‘zbek va fransuz materiali uchun ham, umuman, diskurs tadqiqotlari uchun ham metodologik jihatdan istiqbollidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Murphy M. Lynne, Paradis C., Willners C. Introduction. Lexical contrast in discourse. Journal of Pragmatics. 2009, vol. 41, №11, p. 2137–2139.

(2). Shukurov R., O‘zbek tilida antonimlar, 1977, 6-bet.

(3). Haydarov A.A., Barnoyeva M.A. So‘zlararo ma’noviy munosabat turlari (antonimiya hodisasi misolida), 2024, 153-bet.

(4). Зайцева Н.В. Виды антонимов в составе антонимического корпуса текста. 2007, с. 86.

(5). Reig Alamillo A. va boshq., The Analysis of Synonymy and Antonymy in Discourse Relations: An Interpretable Modeling Approach. 2023, p. 430.

(6). Toshtonova M. O‘zbek tilida inson tana a’zolari bilan bog‘liq frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyatlari. 2017, 12-bet.

(7). Xamidova M.H. Fransuz hamda o‘zbek tillarida meteorologik leksika tizimi va tarkibi. 2024, 7-bet.

(8). Reig Alamillo A., Torres Moreno D., Morales González E., Toledo Acosta M., Taroni A. Hermosillo Valadez J. The Analysis of Synonymy and Antonymy in Discourse Relations: An Interpretable Modeling Approach. Computational Linguistics. 2023, vol. 49, № 2, p. 429–464.

(9). Зайцева Н.В. Виды антонимов в составе антонимического корпуса текста. “Научная мысль Кавказа”, 2007, № 4, с. 82–86.

(10). Bobojonova S. (2022). Pragmatic interpretation of educational discourse and expression of dialogic discourse in the communication process.

Saidova Lolaxon Maxammadjonovna (Andijon davlat Chet tillari instituti katta o‘qituvchisi; lolaxon972@gmail.com)

ANTROPONIMLAR LISONIY BIRLIK SIFATIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada antroponimlar tilshunoslikda maxsus nominativ birlik sifatida tahlil qilinadi hamda ularning semantik, sotsiolingvistik va pragmatik xususiyatlari yoritiladi. Antroponimlarning identifikatsion, kommunikativ, sotsial va emotiv-pragmatik funksiyalari ilmiy asosda izohlanadi. Shuningdek, jahon tilshunosligida mavjud bo‘lgan turli nazariy yondashuvlar, xususan, antroponimlarning demotivatsiyasi va semantik yuklamasi haqidagi qarashlar tahlil etiladi. Tadqiqotda fransuz antroponimik tizimi misolida ismlar va familiyalarning tarixiy, etimologik hamda madaniy asoslari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *antroponim, nominativ birlik, semantika, demotivatsiya, sotsiolingvistika, fransuz antroponimikasi, globalizatsiya, madaniy identitet, pragmatika, onomastika.*

АНТРОПОНИМЫ КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ

Аннотация. *В данной статье антропонимы рассматриваются как особые номинативные единицы в лингвистике, а также освещаются их семантические, социолингвистические и прагматические особенности. Научно обосновываются идентификационная, коммуникативная, социальная и эмотивно-прагматическая функции антропонимов. Кроме того, анализируются различные теоретические подходы, существующие в мировой лингвистике, в частности взгляды на демоти-*